

**TANLOV-FARQLASH REAKSIYASI HAQIDA TUSHUNCHА VA UNING
SPORT O'YINLARIDAGI AHAMIYATI**

Murodov Zufar Muzaffarovich

Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti O'zbekiston, Chirchiq shahri

Anotatsiya: Ushbu tezisda jismoniy tarbiya tizimini to'liq isloh qilish, sport maskanlarida malakali voleybolchilar tayyorlash tizimi modellashtirilgan xalqaro standartlar, me'yoriy talablar doirasida amalga oshirilishi ko'zda tutilgan.

Kalit so'zlar: Tayyorlash tizimi modellashtirilgan xalqaro standartlar, tanlov-reaksiyasi, “afferent sintez” (ichki taxlil), xarakat reaksiyasi, tezkorlik.

So`ngi yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning serqirrali tashabbusi va faol sayi-harakatlari tufayli yurtimizda barcha sohalar kabi jismoniy tarbiya va sport tizimini tubdan isloh qilish, yangicha yo`nalish doirasida rivojlantirish va yanada ommalashtirish bo`yicha qator farmon hamda qarorlar qabul qilishgan bo`lib, ularda ko`tarilgan muammolar, belgilangan konseptual vazifalar bosqichma-bosqich o`z yechimini topib bormoqda. O`ylaymizki, buning asosiy sabablaridan biri shuki, yurtimizda faoliyat ko`rsatib kelayotgan ixtisoslashtirilgan sport mакtablarida, xatto mamlakat championatlarida muntazam ishtirok etuvchi 5-6 ta klub jamoalari va yurtimiz terma jamoalarida ham iste`dodli voleybolchilar tayyorlashga mo`ljallangan jahon va yevropa tajribasi, mashg`ulot dasturlari joriy etilmagan. Olimpiada o`yinlari va jahon championatlariga tayyorlovchi ixtisoslashtirilgan markazlar voleybol akademiyalari, shu jumladan ushbu sport turiga ixtisoslashtirilgan o`rta umumta`lim maktablari, akademiyasi litseylar, texnikumlar mavjud emas. Faoliyat yuritib kelayotgan sport maktablari esa har bir tayyorgarlik guruhlari bilan olib borilayotgan o`quv mashg`ulotlari tizim tartibda tashkil etilmaydi. Vaholanki, mazkur sport maskanlarida malakali voleybolchilar tayyorlash tizimi modellashtirilgan xalqaro standartlar, me'yoriy talablar doirasida amalga oshirilishi maqsadga muofiqdir.

Vaziyatli sport turlarida, ayniqsa sport o`yinlarida amaliyotida rejalshtirilgan texnik-taktik usullarni foydali natija bilan ijro etish ustivor jihatdan tanlov-farqlash reaksiyasiga bog`liqdir. Tanlov-reaksiyasi sport o`yinlarida keng qo`llaniladigan atama bo`lib, u o`yin jarayonini kuzatish asosida qulay vaziyatni tanlab, shu vaziyatni o`z foydasiga hal qilish bilan bog`liq texnik-taktik usulni ijro etishni anglatadi. Tanlov reaksiyasining samarali amalga oshirilishi avvalam bor bosh miyya yarimsharlarida kechadigan psixofiziologik jarayonlar-xotira, diqqat, ong, tafakkur, idrok va iroda kabi mexanizmlar faoliyatiga bog`liqdir. Inson avval tashqi kerak qo`zg`atqichni ko`rish, eshitish, sezish yoki boshqa funksional orgonlar yordamida qabul qilib, muvofiq nerv markaziga, “afferent sintez” (ichki taxlil) taxliliga yuboradi. Taxlil davomida kerak bo`lgan maqsadga mos vaziyat xotira-tajriba orqali imkoniyatga qarab solishtiriladi. Agar qaror loyihasi ma`qul bo`lsa, harakat reaksiyasi ijro etiladi. Demak tanlov reaksiyasi har doim ham muvaffaqiyatli yakunlanavermaydi. Ushbu jarayon samaradorligi tajribaga yoki mashq qilinganlik



darajasiga bog'liq bo'ladi. Sport o'yinlarida va xususan voleybolda bunday tayyorgarlik psixo funksional tayyorgarlik deb ataladi. Masalan, voleybolda to'p kiritishdan avval o'yinchilari raqiblar joylashgan zonalarni ko'zdan kechiradi, qulay zonani tanlaydi, agar jarayonda o'zgarish bo'lmasa, o'z imkoniyatiga qarab, samarali bo'lgan to'p kiritish usulini ijro etadi. Tanlov reaksiyasi ichki psixo fiziologik mexanizmlar asosida ijro etilsada, ushbu qobilyatning amalga oshirilish tezkorlik sifatining tarkibiy komponentlari, ayniqsa oddiy va murakkab reaksiyalarining namoyish etilishiga harakat qonuniyatlariga asoslanadi. Sport o'yinlarida tanlov reaksiyasi raqibni joylashishi yoki harakatlanishi, to'pning yo'nalishi, tezligi va baland-pastligi, o'z jamoadoshining joylashishi yoki harakatlanishi, nihoyat o'zining imkoniyatlarini e'tiborga olishni talab qiladi. Tanlov reaksiyasini samarali amalga oshirish uchun o'yinchida ko'rish chuqurligi va kengligi, diqqatni o'tkirlashtirish, qisqa muddatli hotirani ishga solish, to'pni uzoq - yaqinligi tezligi va baland - pastligini xiyo qilish, vaziyatni o'zgarish nuqtasini bashorat qilish kabi qobilyatlar yaxshi shakllangan bo'lishi lozim.

Bu borada bir qator mutaxasis - olimlar tomonidan e'tirof etilgan fikr -mulohazalar alohida e'tiborga loyiqidir. Chunonchi, V.I.Lyaxning ma'lumotlariga qaraganda, sport amaliyotida ayniqsa, sport o'yinlarida (Voleybol, basketbol, gandbol, futbol va h.k) obyektni kuzatish (to'p, o'z va raqib o'yinchilarini), vaziyatni tahlil qilish, farqlash, tanlash, qulay vaqt va foydali usulni qo'llash foydali taktikani amalga oshirish uchun imkoniyat yaratса, tanlov asosida ijro etiladigon harakat reaksiyasi tezkorlik - kuch va turli ko'rinishdagи koordinatsion qobilyatlar bilan bog'liq ekan. Uning fikricha obekti, kuzatish, tahlil qilish va tanlov jarayonlari bosh miya nerv markazlari va analizatorlar faoliyatining mahsuli bo'lmish psixologik qobilyatlar - hotira, diqqat, idrok, taffakur, ong va irodaga asoslanar ekan. Tanlov bilan bog'liq harakat reaksiyasi esa qayt etilgan jismoniy sifatlardan tashqari chidamkorlik yoki jismoniy - ruhiy ish qobilyati bilan belgilanishi takidlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi va qo'llab- quvvatlashi bilan O'zbekistonda 2017-2021 yillar uchun jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish dasturi.
2. Ayrapetyants L. R., Pulatov A. A Isroilov Sh. X. Voleybol. Oliy o'quv yurtlari umumiy kurs talabalari uchun o'quv qo'llanma.T.2009, 77 b.
3. Godik M. A. Fizicheskaya podgatovka fudbolistov.. M.: Olimpiya Press,2006,, 272 b.
4. Jeleznyak Yu. D. Voleybol: U istokov masterstva / M .:Fair-Press,1998.
5. Jeleznyak Yu. D., Ivoelov A. V. Voleybol uchebnik dlya IFK.1991 M. Fiz, 239 b.
6. Wikipedia.www.ru